

## Tarqatma materiallar

### No'ananaaviy xom ashyo turlari va qo'llanishi



Nonvoychilik, qandolatchilik va boshqa ko'pgina oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xom ashyolar bilan bir qatorda ko'pgina an'anaviy bo'lmagan mahsulotlar ham ishlatiladi. An'anaviybo'lmagan xom ashyolarga emul'gatorlar, parafin, asalari mumi, silikonkabimoddalar misol bo'ladi

Parafin yuqori uglevodorod molekulasi neft' mahsuloti hisoblanadi. Tozalangan parafin hidsiz, ta'msiz yogsimon moddadir. U suvda va spirtida erimaydi. Organik erituvchilarda esa yaxshi eriydi. Parafindan draje va karamel ishlab chiqarishda yaltiroqlik bagishlovchi modda sifatida foydalaniladi. SHuning parafindan qandolatchilik mahsulotlarini o'rash uchun ishlatiladigan yopishmaydigan qogoz (parafinlangan qog'oz) ishlab chiqarishda foydalaniladi.



**Teobromin.** Bu modda kuruk fermentatsiya kilinmagan urug massasining 0,8-1,5 % ni tashkil kiladi. U nafakat dukkak urugida, balki urugning atrofidagi kakaovellada xam (0,5-1%gacha) mavjud. Kakao dukkagida biroz mikdorda *kofein* mavjud.

**Kraxmal.** Kraxmal kakao dukkaklarining xujayralarida kupincha oddiy bir yadrolidonlar kurinishida mavjud. Kuruk fermentlashtirilmagan dukkaklarda 5-9 % gacha kraxmal bor. Kraxmaldan tashkari, magiz saxaroza, glyukoza va fruktozaga boy. Tovar dukkaklarida bu kandlarning mikdori fermentatsiya darajasiga boglik. Kuruk fermentlashtirilmagan kakao dukkaklarida kand mikdori 1-1,6 % ni tashkil kiladi. Kakao dukkaklari magzida 2,5 % ga yaqin selluloza va 1,5 % pentozanlar mavjud; kakaovellada ular mos ravishda: 16,5 va 6 %.

**Oksil moddalar.** Kako dukkaklarida oksil moddalari, asosan, albumin va globulinlardan iborat. Kakao dukkaklaridagi oksil mikdori 10,3-12,5 % ni, kakao vellada esa 13,5 % ni tashkil kiladi.


**Oshlovchi va buyovchi moddalar.** Ular kakao dukkaklariga xos achchik, taxir ta'm va rangni beradi. Oshlovchi va buyovchi moddalar polimerli fenol birikmalar (polifenollar) guruxiga kiradi. Ularning kimmatli xossalariidan biri R vitamini ta'siri xisoblanadi. Kakao dukkaklarining magzida oshlovchi va buyovchi moddalarning mikdori 4-7 % ni tashkil kiladi.



Qandolatchilik, nonvoychilik va makaron mahsulotlari ishlab chiqarishda ularga o'ziga xos hid va ta'm berish uchun kuppina maxsus kukunlar (poroshok) ishlatiladi. Kukunlarning olishga kura ikki turi mavjud: sabzavot va meva-rezavor kukunlari. Sabzavot kukunlari karam, sabzi, oshqovoq, qand lavlagi va kartoshkadan, meva-rezavor kukunlar ega olma, nok va boshka mevalardan olinadi.

Sabzavot va meva-rezavor kukunlari maxsus zavodlarda quyidagi texnologiya asosida olinadi:

- meva-rezavor va sabzavotlarni zavodga keltirish;
- xom ashyoni aralashmalar, meva-bandlari va barglardan tozalash va yuvish.
- xom ashyoni pusti, urug'i va boshqa qismlardan holi etish;
- yanchish va bo'tqa xoliga keltirish;
- bo'tqadan sabzavot va meva-rezavor sokini ajratib olish;
- sokni tozalash va quritishga yuborish;
- quritilgan kukunni tozalash va qadoqlash.





## NON TURLARI.



Ун, асосан, бугдой ва жавдардан, баъзан арпа, маккажўхори, сули, нўхат, соя ва баъзи бошқа экинлардан тортилади Ун тур, тип ва сортларга бўлинади. Уннинг тури ун олинган дон экини билан белгиланади. Нима мақсадга мўлжалланганлигига қараб уннинг турлари типларга (нонбоп, макаронбоп ва ҳ.к.), уннинг тур ва типлари эса сифатига қараб, товар сортларига бўлинади.



Нон бугдой ва жавдар унidan ёпилади. Тўйимлилигини ошириш мақсадида айрим сорт нонларга сут, ёғ, шакар, тухум, кийм, солод, майиз сингари маҳсулотлар, таъмлилик хусусиятини яхшилаш мақсадида эса кўкнор уруғи, седана, кашнич сеппилади, арпабодён, ваниль, ванилин, заъфар ва бошқалар солинади.



**Миллий сорт нонлар.** Ноннинг одатдаги сортларидан ташқари, айрим республикаларда миллий сортлари ҳам ишлаб чиқарилади. Улар одатдаги сортлардан ҳамирининг таркиби, тайёрлаш жараёни, пишириш воситалари (тандир нони, шакли, ўлчами, ташқи безаги, таъми ва бошқалари) билан фарқланади. Ноннинг миллий сортларига: озарбайжон чураги, арманча матнакаш, лаваш ва догик, шоти, мадаури, тандир юмалоғи; ўзбекча гижда, оби, патир, ширмой, пўлоти нон, қулча сингари ёпган нонлар киради. Ўзбекистонда ўзига хос бўлган нон маҳсулотлари кенг ассортиментда ишлаб чиқарилади.



